



TURKIY TARJIMALARDA ANTROPOSENTRIK METONIMIYANING KOGNITIV ASPEKTI

Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent moliya instituti

E-mail: moliya2021@tfi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ozarbayjon shoiri Muhammad Hodiy qalamiga mansub “Alvohi intiboh” (“Alvohi intiboh yoxud insonlarning tarixiy fojialari” yoki “Ozodlik lavhalari”) nomli shaklan tarjibandni eslatuvchi klassik doston tarjimasida asosidagi “Hayot sadolari” va turk shoiri Behjot Kamol Chog'larning “Istayurmen” nomli lirik asarlari Rauf Parfi O'zturk tarjimasida asosida tahlil qilingan. Mazkur tarjima matnlari majoziy obrazlilik asosiga qurilgan badiiy tafakkur tabiati bilan tadqiqot manbai sifatida alohida e'tiborga molik. Shunga ko'ra maqola antroposentrik xususiyatga ega bo'lgan poetik metonimiyalarning lingvistik tahlili va o'ziga xos xususiyatlarini kognitiv yondashuv asosida ochib berishga bag'ishlanadi. Stilistika, lingvopoetik, kognitiv tahlil, she'riy matn talqini bo'yicha o'quv kurslarida hamda lingvistikani o'qitish amaliyotida foydalanish imkoniyati maqolaning amaliy qiymatini belgilaydi.

Kalit so'zlar: poetik metonimiya, antroposentrik, kognitiv, vosita maydoni, maqsad maydoni, parafraza.

Kirish (Introduction)

XX asr o'zbek modern she'riyat asoschilaridan bo'lmish Rauf Parfi merosi o'zbek milliy she'riyati, adabiyoti taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lganidek jahon adabiyoti nodir namunalari qilingan tarjimalari ham alohida e'tiborga ega. U O'zbekiston va Ozarbayjon adiblarining Halil Rizo rahbarligida o'tgan yig'inida “O'zturk” deb nom olgan, shuningdek, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Turkiya Yozarlar birligining Adabiy mukofoti (1991) hamda Xalqaro Mahmud Koshg'ariy (1992), Turkiya Diyonat Vaqfi mukofoti laureatidir.

Tarjimon sifatida Rauf Parfi turli tillardagi ijod namunalari qatorida bir qator qardosh xalqlarning zamonaviy shoirlari qalamiga mansub asarlarni mahorat bilan o'zbek tiliga o'girdi. “Abu turk nafasi, Oltoy chechagi” [9, 163] bo'lmish turkiy tillar qadimdan so'zga nihoyatda boy ekaniga tarix zarvaraqlari guvohlik berib keladi. Agglyutinativ hisoblanmish bu tillarning ildizi bir, tili-yu dini, ota-bobolari bittadir. Shu sabab qardosh davlatlar o'rtasidagi adabiy aloqalar kuchayishi, muntazam ravishda mohirona tarjimalarning e'lon qilib borilishi hamisha diqqatga sazovor bo'lib kelgan. Zero, bir-biridan quvvat olish qudratini o'zida mujassam etgan sermahsul adabiy aloqalar asosida yaratilgan o'lmas badiiy tarjimalar o'zbek kitobxonlarini qardosh xalqlar olamiga, madaniyati va san'atidan bahramand bo'lish baxtiga musharraf etadi. Bu o'rinda adabiyotimiz xazinasini boyitib turgan badiiy durdonalar: ozarbayjon shoiri Muhammad Hodiy qalamiga mansub “Alvohi intiboh” (“Alvohi intiboh yoxud insonlarning tarixiy fojialari”, “Ozodlik lavhalari”) nomli shaklan tarjibandni eslatuvchi klassik doston tarjimasida asosidagi “Hayot sadolari” hamda turk shoiri Behjot



Kamol Chog'larning "Istayurmen" she'riy asarlari matnidagi antroposentrik xarakterdagi metonimiyalarning lisoniy va kognitiv xususiyati tahliliga e'tibor qaratildi.

Nazariy asoslar (Theoretical Basis)

Antroposentrik – bu inson olamning markazi va eng oliy maqsadi degan g'oyaga sodidq qolish [8], demakdir. Dunyo tilshunosligida N.D.Arutyunova, Yu.D.Apresyan, V.N.Teliya, A.A.Ufimseva, V.G.Gak, Ye.V.Urison, B.A.Serebrennikov, T.V.Bo'ligina, A.D.Shmelev, R.U.Madjidova, G.S.Nasrullayeva va boshqa olimlar til birliklarining antroposentrik jihatini turli yondashuvlar asosida tadqiq etishgan.

Metonimiya ham ma'no ko'chishi orqali yangi semema hosil bo'lishiga olib keluvchi hodisalarning asosiylaridan hisoblanadi va shu masala haqida gap borgan ishlarning hammasida qayd etiladi. U grekcha "*metonimia*" so'zidan olingan bo'lib, "*qayta nomlash*", "*nomni o'zgartirish*", "*yangi nom qo'yish*" degan ma'nolarni ifodalaydi. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chishi, shaxs yoki predmetni unga bog'liq bo'lgan boshqa bir nom (o'sha shaxs yoki predmetning belgilari) bilan ifodalash metonimiyadir [10, 83]. U nutqda qisqalikka, ixchamlikka erishishga intilish natijasida yuzaga keladi.

Натижалар ва Мунозара (Results, and Discussion)

Ma'lumki, tilshunoslik fanining struktur-funksional paradigmasida metonimik yo'l bilan ma'no ko'chishining kognitiv tomoniga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Unga ko'ra, konseptual metonimiya, konseptual metaforaga nisbatan ancha aniq bo'lgani holda, inson tomonidan ortirilgan bilim orqali oziqlanadi. Shu bilan birga u aniq fiziologik yoki assotsiativ ko'rsatmaga ega [6, 8]. N.N.Boldirev esa konseptual metonimiyaning bir konseptning boshqa konseptni tavsiflash uchun qo'llanilishi, o'zi bilan bog'liq bo'lgan konsept bilan bir konseptual maydon atrofida birlashuvini qayd etadi [7, 102]. Masalan: "*Hayotning saslari go'shimda ko'p faryod shaklinda*" (M.Hodiy) [9, 274] – deganda hayotda mavjud odamlarlarning ovozlari nazarda tutilgan bo'lib, "BORLIQ → INSON" munosabati asosida antroposentrik metonimiya hosil bo'lgan [1, 336]. "*U Maryam o'g'lining-da asri qabrison holinda...*" (M.Hodiy) [9, 293] misrasida esa *qabrison* leksemi orqali Iso payg'ambarning laqablari Masih (nurli, ravshan, tovlanuvchi)ga, ya'ni davolovchi, hayot baxsh etuvchi (<https://ismlar.com>) ma'nosida o'liklarni tiriltiruvchi mo'jizalariga, aniqrog'i, qayta tirilgan odamlarga ishora qilingan. "*Tili obod bo'lgan yo'qdir, ko'ngillar bori vayrondir*" (M.Hodiy) [9, 282], "*Tilingdan tushmayurkan haqparasti shikori-quvvatsan*" (M.Hodiy) [9, 281] misralarida bo'lsa odam a'zosi bo'lmish til so'zi orqali undan chiqqan so'z ko'zda tutilgan va "INSON → BORLIQ" kognitiv modelida ko'chma ma'no namoyon bo'lgan.

"Alvohi intiboh"da "INSON → DAVR" modelida, ya'ni biror davr nomi o'sha davrda yashagan muhim shaxs nomi bilan atalishi orqali metonimiya yuzaga kelishiga ko'plab misollar uchraydi: *U Nuhning vaqti navha, hamda bir to'fon holinda, U Yusuf vaqti kechdi choh ila zindon holinda, U Fir'avn zamoni kechibdir tug'yon holin, Bu Ibrohimning asri otashi so'zon holinda, U Suqrot asri dillar hasta, bedarmon holinda* (M.Hodiy) [9, 292], *U Maryam o'g'lining-da asri qabrison holinda, Janobi Ahmad asri xalq beurfon holinda, U Zardusht asri insonlar butun sindon holinda...* (M.Hodiy) [9, 293]. "MAKON → INSON" modelida hudud nomi orqali undagi odamlar ko'zda tutilgan misollar ham mavjud. Masalan, "*U Muso asri Misrni ko'rmish edim qon holinda*"



(M.Hodiy) [9, 292] misrasida “Musos asri” jumlasida yuqoridagidek davr nomi muhim shaxs nomi bilan atalgan bo‘lsa, Misr toponimi orqali undagi xalq nazarda tutilgan.

1998-yilda Z.Kovesses va J.Radden tomonidan e’tirof etilgan quyidagi fikr metonimiyaning kognitiv tahlilida alohida e’tiborga loyiq: “Metonimiya — bu kognitiv jarayon bo‘lib, unda bir konsept — vosita (vehicle) boshqa konsept — maqsad (target)ga mental erishish imkoniyatini bir maydon yoki ideallashtirilgan kognitiv model doirasida taminlaydi” [5, 39]. Demak, konseptlar ideallashtirilgan kognitiv modelning qismlari hisoblanib, turdoshlik munosabatida bo‘ladi. V.Kroft va D.Kruzlar ham konseptual metonimiya tipidagi ma’no ko‘chishining yuz berishida mana shu ikki kognitiv maydon, ya’ni *vosita maydoni* va *maqsad maydoni* asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, metonimiyada *vosita maydoni*(*vehicle domain*)ning vazifasi faqat *maqsad maydoni* (*target domain*) tuzilishini aniqlashdan iborat [3, 193]. Yuqoridagi misollarda *hayot*, *Misr* so‘zlari ko‘chma ma’nosining shakllanishida *vosita maydoni* – **zamon** va **makon** konsepti bo‘lsa, *maqsad maydoni inson* konsepti sanaladi. Payg‘ambarlar antroponimi bilan bog‘liq: *Nuhning vaqti*, *Yusuf vaqti*, *Ibrohimning asri*, *Musos asri*; *tarixiy shaxslar: Maryam o‘g‘lining-da asri*, *Fir‘avn zamoni*, *Suqrot asri*, *Zardusht asri* – **inson** konsepti sifatida *vosita maydoni* bo‘lib, **davr** konsepti *maqsad maydoni* hisoblanadi. “*Janobi Ahmad asri*” deganda “Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad” deya naql paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan Ahmad Yassaviy (1166-yilda vafot etgan) emas, balki “Olamlar faxri” Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar nazarda tutilgan bo‘lishlari ehtimoldan holi emas. Negaki “Injil”da ham, “Qur’on”ning bir o‘rnida ham Rasululloh (s.a.v.)ni shu ism bilan tilga olingan (jadvalga qarang).

**Tarjimalardagi antroposentrik metonimiyalarning
kognitiv tahlil jadvali**

VOSITA MAYDONI	MAQSAD MAYDONI
Hayot	INSON(LAR)
Misr	
Til	SO‘Z
Nuhning vaqti	DAVR
Yusuf vaqti	
Ibrohimning asri	
Musos asri	
Janobi Ahmad asri	
Maryam o‘g‘lining-da asri	



Fir'avn zamoni	
Suqrot asri	
Zardusht asri	

Tarjimalarda metonimiya usuli asosida hosil bo'lgan tasviriy ifoda(parafraza)lar ham mavjud. Ma'lumki, "biror narsa va hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o'xshatish orqali tasvirlab ifodalashga **tasviriy ifoda** deyiladi. Ular narsa va hodisalarning ikkinchi nomi hisoblanadi" [2, 150]. Masalan: *U Maryam o'g'lining-da asri qabrison holinda...* [9, 293. Parchadagi "*Maryam o'g'li*" jumlasini orqali Iso payg'ambar nazarda tutilgan. Shuningdek, "*Kelganingdan beri, ey, Odam o'g'li, arzi imkona...*" [9, 279] misrasidagi "*Odam o'g'li*" jumlasini negizida birinchi inson Odam Ato avlodlari bo'lmish butun *erkaklar* ko'zda tutilgan bo'lsa, "*U Havvo qizlari holi-da purahzon holinda*" [9, 291] misrasidagi "*Havvo qizlari*" orqali ilk ayol Momo Havvoga ishora qilish bilan dunyo yuzini ko'rgan jamiki ayol zoti nazarda tutilgan. Mazkur metonimik tasviriy ifodalarni *kontekstual parafrazalar* deb atashimiz mumkin. Chunki bunday parafrazalar ma'lum bir nutq doirasidagina qo'llanadi. Ular muayyan kontekst(matn)dagina yaratilib, shu kontekst uchungina xos bo'lgan tasviriy ifodalar hisoblanadi. Ayni parafrazalarni matndan tashqarida, alohida olib bo'lmaydi. Aniqrog'i, ular faqat matndagina, boshqa so'zlar qurshovidagina, muayyan til birligiga nisbatan, tasviriy ifoda bo'lib keladi [Qarang: 11, 10].

Rauf Parfi tarjimalarida so'zlar o'rinli va asosli qo'llangan bunday antroposentrik metonimiyalarga boyligi, til qudratini namoyon etishda ijodkor mahorati yorqin ifodalay olingani bilan alohida e'tiborga talab qiladi.

Xulosa (Conclusion)

Ozərbayjon shoiri Muhammad Hodiyning "Alvohi intiboh" ("Hayot sadolari") va turk shoiri Behjot Kamol Chog'larning "Istayurmen" lirikasi kabi tarjimalar ko'chma ma'noli so'zlarni mahorat bilan qo'llanishiga ko'ra e'tirofqa loyiq asarlardan hisoblanadi. Qardosh millatga mansub bo'lgani sababli yuqorida tahlil qilingan asarning asli va tarjimasi o'rtasida u qadar katta jiddiy o'zgarish sezilmaydi. Ya'ni tarjimon Rauf Parfining mahorati orqali Muhammad Hodiyning hamda Behjot Kamol Chog'larning uslubi, badiiy kashfiyoti, umumun olganda, tengsiz iste'dodini ochiq anglashimiz mumkin. Tarjimalar tahlili misolida amin bo'lamizki, so'zlarning semantik taraqqiyotida polisemantik so'zlarni qo'llash mahorati nafaqat ozarbayjon va turk tillarida, balki o'zbek tili qurilishida ham eng muhim vositalardan biridir. Ijodkorlar ayrim tushunchalar mohiyatini ochishda unga aloqador boshqa bir kognitiv maydonga xos bo'lgan metonimik so'zlardan foydalanadi, natijada turli xil konseptual maydon ma'noviy guruhiga oid leksemalarni umumlashtira olgan yangi mohiyat shakllanadi. Shunga ko'ra xulosa qilish mumkinki, ijodkor uslubining o'tli nafasi, o'zak mag'zi bo'lgan metonimiya ta'sirchanlikni ta'minlashda, misralar mohiyatini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

1. Dedaxanova M. Cognitive Approach to the Analysis of Anthropocentric Metaphors in the Poetry of Rauf Parfi // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal./Volume: 7 | Issue: 5 | May 2021|| DOI: 10.36713 (www.eprajournals.com)(https://doi.org/10.36713/epra 2013). Impact Factor: 8.047 || ISI Value: 1.188. – B. 336-339.
2. Dedaxanova M., Dadaxonov A., 2016. O'zbek tili fanidan ma'lumotnoma. Qo'llanma. – Toshkent, "Yangi kitob". – 592 b.
3. Croft W., Alan D. Cruse, 2004. Cognitive Linguistics, New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press. – 374 p.
4. <https://ismlar.com>
5. Kövecses Z., Radden G., 1998. Metonymy: Developing a Cognitive Linguistic View. Cognitive Linguistics.
6. Lakoff, G., Johnson M., 2003. Metaphors We live by, The University of Chicago Press –256 p.
7. Болдирев Н.Н., 2014. Когнитивная лингвистика. Введение в когнитивную лингвистику (Cognitive linguistics. Introduction to cognitive linguistics), Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет имени Г.Р.Державина. – 236 с.
8. Епишкин Н.И., 2010. Исторический словарь галлицизмов русского языка. – М.: Словарное издательство ЭТС. ([https://gufo/me/dict/gallicisms](https://gufo.me/dict/gallicisms))
9. Рауф Парфи, 2013. Туркистон руҳи // Сайланма: шеърлар, таржималар / нашрга тайёрлаган В.Файзуллоҳ. – Тошкент, Шарқ.– 320 б.
10. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. , 1992. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Олий ўқув юрти филология факультети талабалари учун дарслик.— Т.: Ўзбекистон.—399 б.
11. Умиров И.Э., 1996. Ўзбек тили парафразалари. – Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент – 23 б.